| | |
|---|---|
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirishi, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olishi, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirishlari lozim. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. A.S.Soliyev, N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov, F.T.Rajabov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. Toshkent, «Noshir», 2019. -512 b.<br>2. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география. Учебное пособие. – Т.: Ijod-Press, 2019. -188 с.<br>3. Komilova N., Jumaxonov Sh., Rajabov F. Inson geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Universitet”, 2018.-248 b.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.<br>5. Komilova N., Ravshanov A., Muxammedova N. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. O‘quv qo‘llanma. T.: «MUMTOZSOZ», 2019.-188 b.<br>6. Komilova N., Jumaxonov Sh.va b. Sotsial va madaniy geografiya. Darslik. «Shafoat Nur Fayz», 2020.-256 b.<br>7. Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart. 2004.<br>8. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методлар ва амалиёт.-Т.: Камалак, 2013.<br>9. Солиев А.С., Маҳамадалиев Р.Й. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари.- Т., 2005<br>10. Чумаков А.Н. Глобализация контуры целостного мира. М.: Проспект, 2009.-432 с.<br>11. Экономическая и социальная география. Основы науки. – М.: Владос, 2003.<br>**Axborot manbaalari**<br>12. http://demography.narod.ru.<br>13. www.demoscope.ru.<br>14. www.lex.uz<br>15. www.undp.org/popin/popin.html<br>16. www.stat.uz<br>17. www.tradingeconomics.com – экономические показатели |
| 7. | Fan dasturi Temiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil 26 avgustdagi 1 sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>A.Q.Choriyev – Ter DU, “Geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Q.A.Allanov – Termiz davlat universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.<br>H.M.Abdunazarov – Termiz davlat universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n. |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
A.R.Maraximov
2023 yil “26” avgust

Ro‘yxatga olindi: № BD-60530400-1.12
2023 yil “26” avgust

# IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA

## O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 500000 | - Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta’lim sohasi: | 530000 | - Fizika va tabiiy fanlar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60530400 | - Geografiya |

**Termiz - 2023**

| Fan/modul kodi IIGB1061 | O‘quv yili 2023-2024 | Semestr 2 | ECTS - Kreditlar 6 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta’lim tili O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari 6 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya | | 90 | 90 | 180 |

2.

### I. Fanning mazmuni

- Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy-metodologik va amaliy asoslari (tushunchalar, qonuniyatlar, tadqiqot usullari va boshqalar) to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.
- Fanning vazifasi – talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni, geografiyaning ijtimoiy tarmog‘ini obyekti va predmeti, shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy geografik jarayonlarni o‘rganishda qiyosiy geografik usulni qo‘llay olishini, jamiyatning turli jabhalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va geografik aloqadorlikni aniqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

### II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya”ning fanlar tizimida tutgan o‘rni**

Geografik fanlar tizimi: tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tabiiy-ijtimoiy fanlar, “oraliq” fanlar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning (inson geografiyasi yoki ijtimoiy geografiyaning) fanlar tizimida tutgan o‘rni. Uning boshqa fanlar bilan aloqalari. Geografiyaning ijtimoiy qanotini nomlanishi: iqtisodiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, inson geografiyasi, ijtimoiy geografiya. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi.

**2-mavzu. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining tadqiqot obyekti va predmeti**

Fanning tadqiqot obyekti va predmeti o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti bo‘yicha geograflarning turlicha qarashlari. Iqtisodiy va ijtimoiy (ijtimoiy) geografiyaning alohida tarmoqlarining tadqiqot obyekti va predmeti. Tor ma’noda iqtisodiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti. Tor ma’noda ijtimoiy (sotsial) geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti.



**3-mavzu. Fanning tadqiqot usullari**

Tadqiqot usuli xaqida umumiy tushuncha. Universal (umumiy, yoki falsafiy) fikrlash usullari va tamoyillari. Tadqiqotlarning geografik-taqqoslash usuli. Tarixiy usul. Geografik tadqiqotlarda kartografik usulning roli. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada matematik usullar. Kuzatish, modellashtirish, anketa-so‘rov, ekstrapolyatsiya, tizim-tarkib usullari va ularning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o‘rganishdagi roli.

**4-mavzu. Iqtisodiy geografik bilimlarning tug‘ilishi**

Geografiyaning rivojlanish bosqichlari. Qadimgi dunyo geografiyasi. Anaksimandr va “oykumena” tushunchasi. Gerodot. Gippokrat – tibbiyot geografiyasining asoschisi. Pifeyning Massalidan sayohati. Aristotelning geografik qarashlari. Eratosfen – “geografiya” atamasi muallifi. Gay Pliniy Sekund Starshiy. Geografik hodisalar va jarayonlarni tushunishga oid ilk urinishlar. Klavdiy Ptolomey. Buyuk geografik kashfiyotlar. Lyudoviko Gvichchardini. Bernxard Vareniy.

**5-mavzu. O‘rta Osiyolik allomalar va ularning ijtimoiy geografik g‘oyalar shakllanishiga qo‘shgan hissasi**

Chjan Syanning O‘rta Osiyoga sayohatlari. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi. “Sharq uyg‘onish davri” ikki davri uchun xos tushunchalar. Al-Xorazmiy va uning geografiya faniga qo‘shgan hissasi. “Yer tasviri” asari. Abu Nasr Farobiy. Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziy asarlarida tibbiy geografik ma’lumotlar. Abu Rayxon Beruniy - qomusiy olim. Maxmud Qoshg‘ariy va uning tilshunoslik geografiyasiga qo‘shgan hissasi.

**6-mavzu. XVIII asrda geografiya fanida ijtimoiy-ilmiy yunalish nazariyalarining rivojlanishi**

Akademik ekspeditsiyalar. Kameral statistika. Ivan Kirilovich Kirilovning geografiya faniga qo‘shgan hissasi. Vasiliy Nikitich Tatishev - geograf sifatida. Tatishev bo‘yicha geografiya tarmoqlari. V.N. Tatishev talqinida “siyosiy geografiya”. Immanuil Kant va uning geografiya bilan bog‘liq g‘oyalari. Immanuil Kantning tabiiy geografiya - geografiyaning boshqa sohalari uchun asos ekanligi haqidagi fikrlari. I.Kantning “Tinchlik shartnomasi tamoyillari” loyihasi.

**7-mavzu. XIX asrda olimlarning inson geografiyasiga qo‘shgan hissasi**

Birinchi geografik jamiyatlarning shakllanishi. Iogann Tyunen – qishloq xo‘jaligi shtandorti nazariyasi muallifi. Aleksandr Gumboldt va uning geografiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi. Karl Ritter – geografik fanlarning nazariyotchisi va tashkilotchisi. Konstantin Ivanovich Arsenevning geografiya faniga qo‘shgan hissasi. Pyotr Petrovich Semyonov Tyan-Shanskiy va uning geografiya faniga qo‘shgan hissasi. Djordj Perkins Marsh va uning tabiatni muhofaza qilish borasidagi g‘oyalari.

**8-mavzu. Inson va tabiat o‘zaro ta’siri haqida yondashuvlar va mintaqaviy tadqiqotlar**

Fridrix Ratsel va determinizm nazariyasi. Vidal de la Blash va possibilizm konsepsiyasi. Deterministlar va possibilistlar o‘rtasidagi bahslar. Nikolay

Nikolayevich Baranskiyning inson va tabiat o'rtasidagi munosabat borasidagi qarashlari. XX asrda ijtimoiy geografiyaning asta-sekin alohida ilmiy yo'nalishga aylanib borishi. Ijtimoiy geografiyada milliy maktablarning shakllanishi. XX asrning birinchi yarmida mintaqaviy tadqiqotlarning ustuvorligi. Mamlakatlarning iqtisodiy geografik tavsifi. Inson geografiyasida (ijtimoiy geografiyada) landshaft tushunchasi.

**9-mavzu. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani rivojlanishidagi hozirgi bosqich**

XX asrning ikkinchi yarmida geografiyada tarmoqlar bo'yicha tadqiqotlarning kengayishi. Ijtimoiy geografiyada matematizatsiya jarayonlari. Tizimli yondoshuv. Xulq – atvor geografiyasining vujudga kelishi. Fanda sotsiologizatsiya va ekologizatsiya jarayonlari. XXI asr boshlarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Fan rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar. Muammoli tadqiqotlar miqdorining o'sishi. Global muammolarni geografik tadqiq etishga e'tiborni kuchayishi. O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi.

**10- mavzu. Tarixiy geografiya**

Yerda insonning tarqalishi. Tayyor ne'matlarni yig'ib oluvchi xo'jalikdan ishlab chiqarishga o'tish. Agrar inqilob va uning oqibatlari. Geografik mehnat taqsimotining shakllanishi. Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlarida shaharlarning vujudga kelishi va ilk sivilizatsiyalarning shakllanishi. Buyuk Ipak yo'lining O'rta Osiyoning rivojlanishidagi roli. Jahon bozorining shakllanishi. Yevropa mamlakatlarida sanoat inqilobi va uning turli mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.

**11-mavzu. Iqtisodiy geografiya (tor ma'noda) - ijtimoiy geografik fan sifatida**

Iqtisodiy geografiya inson geografiyasining muhim bir tarmog'i ekanligi. Iqtisodiy geografiyaning tuzilishi. Sanoat, qishloq ho'jaligi, transport, qurilish geografiyasi - iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlari sifatida. Hujalik tarmoqlari haqida tushuncha, ularning klassifikatsiyasi. Iqtisodiy geografiyaning amaliy ahamiyati. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat.

**12-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari**

Geografik o'rin tushunchasi, uning turlari. Iqtisodiy-geografik o'rin, siyosiy-geografik o'rin. Hududiy mehnat taqsimoti. Rayon – iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, qolaversa umuman geografiya fanining bosh tushunchasi ekanligi, uning pog'onasimonligi, real geografik va ma'muriy boshqaruv rayonlar. Iqtisodiy rayonlar. Ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari: konsentratsiya (mujassamlashuv), ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatlashuv. N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari konsepsiyasi

**13-mavzu. Geografik tuzilmalar**

Peter Haggett bo'yicha hududiy tizimlarni o'rganishning elementlari. Oqimlar va kommunikatsiyalar. Tugunlar va iyerarxiya. Areallar. Hududiy modellar. Iogann Tyunen modeli. Valter Kristaller va Avgust Lyoshlarning "markaziy joylar" modeli. A.Veberning "sanoat shtandorti" modeli. Boshqa hududiy modellar.



**14-mavzu. Geografik jarayonlar**

Aholi migratsiyasi jarayonlari va uning sabablari. Hozirgi zamon halqaro aholi migratsiyasining geografik manzarasi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda migrantlarni jalb qiluvchi asosiy markazlar. Globalizatsiya jarayonlari. Globalizatsiyani keng va tor ma'noda tushunish. Globalizatsiya va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.

**15-mavzu. Aholi geografiyasi.**

Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning muhim va alohida tarmog'i ekanligi. Aholi geografiyasining tuzilishi. Aholi geografiyasining muhim tushunchalari. Aholi dinamikasi. Aholi takror barpo bo'lishining an'anaviy tipi. Demografik portlash fenomeni. Aholi takror barpo bo'lishining zamonaviy tipi. Aholi soninining tez ko'payib borish xavfi.

**16-mavzu. Madaniyat geografiyasi**

Madaniyat mintaqaning muhim tavsifiy jihatlaridan biri sifatida. Tillar geografiyasi. Dinlar geografiyasi. Madaniyat geografiyasi va aholi. Yer shari aholisining etnik tarkibi. O'zbekiston aholisining etnik tarkibi. Jahonning yirik xalqlari. O'rta Osiyoning madaniy makoni.

**17-mavzu. Sotsial geografiya**

Sotsial geografiyani keng va tor ma'noda tushunish. Sotsial geografiyaning tadqiqot obekti va predmeti, fanlar tizimida tutgan o'rni. Sotsial geografiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Sotsial geografiyaning tarmoqlari. Ta'lim geografiyasi va O'zbekiston ta'lim tizimi. Sog'liqni saqlash geografiyasi. Ayrim xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi. Jinoyatchilik geografiyasi. Turizm geografiyasi. Rekreatsiya resurslari. Xalqaro turizm. Din geografiyasi. Sotsial geografiyaning muhim vazifalari va muammolari.

**18-mavzu. Tibbiyot geografiyasi**

Tibbiyot geografiyasining ijtimoiy geografik fanlar tizimida tutgan o'rni. Tibbiyot geografiyasining shakllanishi. Tibbiyot geografiyaning tadqiqot yo'nalishlari. Aholi salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Tabiiy sharoit, irsiyat va turmush tarzining inson salomatligiga ta'siri. Genogeografiya. Aholi salomatligi va ekologiya. Sog'liqni saqlash geografiyasi. Kichik qishloq aholi manzilgohlari aholisi uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish muammosi.

**19-mavzu. Nozogeografiya**

Nozogeografiya. Nozoareallar va nozomajmualar. Geografik patologiyalar. Pandemiyalar. OITS/OIV geografiyasi. COVID - 19 koronavirus pandemiyasi. Salomatlik geografiyasi. O'lim va umr ko'rish davomiyligi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'limning asosiy sabablari. Dunyo mintaqalari o'rtasidagi umr ko'rish davomiyligidagi geografik farqlar. Tibbiy geografik xaritalar. O'zbekistonda tibbiyot geografiyasi.

Nikolayevich Baranskiyning inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat borasidagi qarashlari. XX asrda ijtimoiy geografiyaning asta-sekin alohida ilmiy yo‘nalishga aylanib borishi. Ijtimoiy geografiyada milliy maktablarning shakllanishi. XX asrning birinchi yarmida mintaqaviy tadqiqotlarning ustuvorligi. Mamlakatlarning iqtisodiy geografik tavsifi. Inson geografiyasida (ijtimoiy geografiyada) landshaft tushunchasi.

**9-mavzu. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani rivojlanishidagi hozirgi bosqich**

XX asrning ikkinchi yarmida geografiyada tarmoqlar bo‘yicha tadqiqotlarning kengayishi. Ijtimoiy geografiyada matematizatsiya jarayonlari. Tizimli yondoshuv. Xulq – atvor geografiyasining vujudga kelishi. Fanda sotsiologizatsiya va ekologizatsiya jarayonlari. XXI asr boshlarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Fan rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlar. Muammoli tadqiqotlar miqdorining o‘sishi. Global muammolarni geografik tadqiq etishga e’tiborni kuchayishi. O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi.

**10- mavzu. Tarixiy geografiya**

Yerda insonning tarqalishi. Tayyor ne’matlarni yig‘ib oluvchi xo‘jalikdan ishlab chiqarishga o‘tish. Agrar inqilob va uning oqibatlari. Geografik mehnat taqsimotining shakllanishi. Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlarida shaharlarning vujudga kelishi va ilk sivilizatsiyalarning shakllanishi. Buyuk Ipak yo‘lining O‘rta Osiyoning rivojlanishidagi roli. Jahon bozorining shakllanishi. Yevropa mamlakatlarida sanoat inqilobi va uning turli mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.

**11-mavzu. Iqtisodiy geografiya (tor ma’noda) - ijtimoiy geografik fan sifatida**

Iqtisodiy geografiya inson geografiyasining muhim bir tarmog‘i ekanligi. Iqtisodiy geografiyaning tuzilishi. Sanoat, qishloq ho‘jaligi, transport, qurilish geografiyasi - iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlari sifatida. Hujalik tarmoqlari haqida tushuncha, ularning klassifikatsiyasi. Iqtisodiy geografiyaning amaliy ahamiyati. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat.

**12-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari**

Geografik o‘rin tushunchasi, uning turlari. Iqtisodiy-geografik o‘rin, siyosiy-geografik o‘rin. Hududiy mehnat taqsimoti. Rayon – iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, qolaversa umuman geografiya fanining bosh tushunchasi ekanligi, uning pog‘onasimonligi, real geografik va ma’muriy boshqaruv rayonlar. Iqtisodiy rayonlar. Ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari: konsentratsiya (mujassamlashuv), ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatlashuv. N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari konsepsiyasi

**13-mavzu. Geografik tuzilmalar**

Peter Haggett bo‘yicha hududiy tizimlarni o‘rganishning elementlari. Oqimlar va kommunikatsiyalar. Tugunlar va iyerarxiya. Areallar. Hududiy modellar. Iogann Tyunen modeli. Valter Kristaller va Avgust Lyoshlarning “markaziy joylar” modeli. A.Veberning “sanoat shtandorti” modeli. Boshqa hududiy modellar.



**14-mavzu. Geografik jarayonlar**

Aholi migratsiyasi jarayonlari va uning sabablari. Hozirgi zamon halqaro aholi migratsiyasining geografik manzarasi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda migrantlarni jalb qiluvchi asosiy markazlar. Globalizatsiya jarayonlari. Globalizatsiyani keng va tor ma’noda tushunish. Globalizatsiya va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.

**15-mavzu. Aholi geografiyasi.**

Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning muhim va alohida tarmog‘i ekanligi. Aholi geografiyasining tuzilishi. Aholi geografiyasining muhim tushunchalari. Aholi dinamikasi. Aholi takror barpo bo‘lishining an’anaviy tipi. Demografik portlash fenomeni. Aholi takror barpo bo‘lishining zamonaviy tipi. Aholi soninig tez ko‘payib borish xavfi.

**16-mavzu. Madaniyat geografiyasi**

Madaniyat mintaqaning muhim tavsifiy jihatlaridan biri sifatida. Tillar geografiyasi. Dinlar geografiyasi. Madaniyat geografiyasi va aholi. Yer shari aholisining etnik tarkibi. O‘zbekiston aholisining etnik tarkibi. Jahonning yirik xalqlari. O‘rta Osiyoning madaniy makoni.

**17-mavzu. Sotsial geografiya**

Sotsial geografiyani keng va tor ma’noda tushunish. Sotsial geografiyaning tadqiqot obekti va predmeti, fanlar tizimida tutgan o‘rni. Sotsial geografiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Sotsial geografiyaning tarmoqlari. Ta’lim geografiyasi va O‘zbekiston ta’lim tizimi. Sog‘liqni saqlash geografiyasi. Ayrim xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi. Jinoyatchilik geografiyasi. Turizm geografiyasi. Rekreatsiya resurslari. Xalqaro turizm. Din geografiyasi. Sotsial geografiyaning muhim vazifalari va muammolari.

**18-mavzu. Tibbiyot geografiyasi**

Tibbiyot geografiyasining ijtimoiy geografik fanlar tizimida tutgan o‘rni. Tibbiyot geografiyasining shakllanishi. Tibbiyot geografiyaning tadqiqot yo‘nalishlari. Aholi salomatligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar. Tabiiy sharoit, irsiyat va turmush tarzining inson salomatligiga ta’siri. Genogeografiya. Aholi salomatligi va ekologiya. Sog‘liqni saqlash geografiyasi. Kichik qishloq aholi manzilgohlari aholisi uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish muammosi.

**19-mavzu. Nozogeografiya**

Nozogeografiya. Nozoareallar va nozomajmualar. Geografik patologiyalar. Pandemiyalar. OITS/OIV geografiyasi. COVID - 19 koronavirus pandemiyasi. Salomatlik geografiyasi. O‘lim va umr ko‘rish davomiyligi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘limning asosiy sabablari. Dunyo mintaqalari o‘rtasidagi umr ko‘rish davomiyligidagi geografik farqlar. Tibbiy geografik xaritalar. O‘zbekistonda tibbiyot geografiyasi.

| | |
|---|---|
| | **20-mavzu. Siyosiy geografiya**<br>Siyosiy geografiya, uning obyekti va predmeti. Siyosiy geografiyaning ijtimoiy-geografik fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari. Siyosiy geografiyaning shakllanish xususiyatlari va bunda g'arb olimlarining xizmatlari. Siyosiy geografiyaning tuzilishi. Siyosiy geografiya va geosiyosat. Ularning o'zaro aloqadorligi va rivojlanish xususiyatlari.<br><br>**21-mavzu. Insoniyatning global muammolari**<br>Global muammoлapning mazmun mohiyati. Jahonning global muammolari va ularning yechimi. Global muammolarning o'zaro aloqadorligi. Tinchlik va qurolsizlanish muammosi. Sust rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish. Global oziq-ovqat muammosi. Energetika va xomashyo muammosi. Koinotdan tinchlik maqsadida foydalanish. Demografik muammo. Inson salohiyatini rivojlantirish muammosi.<br><br>**22-mavzu. Iqlim o'zgarishi va uning hududlar xo'jalik tizimlariga ta'siri**<br>Ekologik muammolar. Insonning atrof muhitga ta'siri va tabiatni muhofaza qilishning zarurligi. Ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Iqlim o'zgarishlari muammosi. Iqlimni saqlash muammosi. Ekologiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqasi, asosiy vazifalari. Iqlimni shakllantiruvchi omillar. Tabiiy va kuchaygan issiqxona samarasi. Iqlim muammolari bo'yicha halqaro kelishuvlar. O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari.<br><br>**III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**<br>**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**<br>1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tuzilishi, uning boshqa fanlar bilan aloqasini o'rganish.<br>2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya alohida sohalarining tadqiqot obyekti va predmeti<br>3. Fanning tadqiqot usullari tahlili<br>4. Qadimgi mualliflar asarlarida iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning elementlari<br>5. Xorazmiy, Beruniy, Qoshg'ariy, Lyudoviko Gvichchardini, Bernxard Vareniy g'oyalari tahlili<br>6. XVIII asr mutafakkirlarining ijtimoiy geografik qarashlarini taqqoslash<br>7. XIX asrda olimlarining inson geografiyasi shakllanishiga qo'shgan hissasini o'rganish<br>8. Geografik determinizm va possibilizm<br>9. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani rivojlanishi hozirgi bosqichining xususiyatlarini o'rganish<br>10. O'tgan davrlarning ijtimoiy-geografik sharoitlarini takror hosil bo'lishi<br>11. Iqtisodiy geografiya - inson geografiyasining muhim bir tarmog'i ekanligi<br>12. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalarini o'rganish<br>13. Hududiy tizimlarni o'rganishning elementlari va hududiy modellar<br>14. Aholi migratsiyasi va globallashuv. Urbanizatsiya jarayonlari va uning hududiy xususiyatlari<br>15. Demografik portlash fenomeni<br>16. Madaniy makon |



| | |
|---|---|
| | 17. Geografiyada xulq atvor usulidan foydalanish<br>18. Tibbiyot geografiyasida asosiy tadqiqot yo'nalishlari<br>19. COVID-19 koronovirus infeksiyasining geografik tarqalish xususiyatlarini o'rganish<br>20. Siyosiy geografik va geosiyosat<br>21. Insoniyatning global muammolarini o'rganish<br>22. O'quv filmini namoyish etish asosida iqlim muammosini o'rganish<br>23. Iqlim o'zgarishining aholi va xo'jalikka ta'siri<br><br>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot usullari<br>2. Qadimgi Gretsiya va qadimgi Rimda geografiya<br>3. Ekspeditsiya-tadqiqot faoliyati va geografiya<br>4. XVII - XXI asrlarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadagi nazariyalarning shakllanishi va rivojlanishi<br>5. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari: geografik mehnat taqsimoti, geografik o'rin, iqtisodiy rayon<br>6. Iqlim o'zgarishi va tibbiy-geografik muammolar |
| 3. | **V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni, obyekti va predmeti, shakllanishi, rivojlanishi, zamonaviy tuzilishi haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;**<br>• iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadagi nazariyalari asoslarini, qonunlar, asosiy tushunchalar, jarayonlarning xususiyatlarini **bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;**<br>• talaba iqtisodiy va ijtimoiy geografik jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, jamiyatning turli jabhalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va geografik aloqadorlikni aniqlay olish, muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish **malakasiga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• blis-so'rov;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |